

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA ISMOIL GASPRINSKIY

Dinora Eshboyeva

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

dinoraeshboyeva23@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqola Turkiston jadidchilik harakatiga katta hissa qo‘shegan Ismoil Gasprinskiy va “Turkiston jadidlarining otasi” unvoniga sazovor bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyo‘rtasidagi munosabatlar aks ettirilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Tarjimon” gazetasidagi faoliyati va Ismoil Gasprinskiy bilan amaliy faoliyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ismoil Gasprinskiy, Mahmudxo‘ja Behbudi, Tarjimon, 1893-yil, 1908-yil.

MAHMUDKHOJA BEHBUDII AND ISMAIL GASPRISKY

ABSTRACT

The article discusses the relationship between Ismail Gasprinsky, who made a great contribution to the Turkestan jadidism, and Mahmudhoja Behbudi, who was awarded the title “Father of Turkestan jadidism”. Also, information is given about Mahmudhoja Behbudi’s work in “Tarjiman” newspaper and practical work with Ismail Gasprinsky.

Key words: Ismail Gasprinsky, Mahmudhoja Behbudi, Translator, 1893, 1908.

Turk xalqlarini ma’rifatli qilish, ularni mustamlaka zulmidan qutqarib, ozod va farovon davlatga aylantirish uchun XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turk xalqlarining ziyoli qatlami orasida ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun harakat boshlandi.

Ushbu harakat tarix sahifalariga “Jadidchilik” nomi bilan muhrlandi. “Jadid” atamasi arabchadan olingan bo‘lib “yangi” degan ma’noni anglatadi. Ushbu harakat Turkistonni yangi usulda ozodlikka olib chiqish va xalqni ma’rifatli qilish uchun qaratilganli bois ham jadidchilik harakati deb nomlandi. Dastlab Ismoil Gasprinskiy tomonidan 1884-yilda Bog‘chasaroyda usuli jadid (yangi usul) maktabi ochildi. Shuningdek, Ismoil Gasprinskiy “Tarjimon” gazetasiga ham asos soldi. Ushbu gazeta Turkistonda ham tarqalishidan mamnun bo‘lgan Ismoil Gasprinskiy 1893-yilda Samarqand, Buxoro va Toshkentga keldi. Ko‘plab adabiyotshunoslarning fikricha Mahmudxo‘ja Behbudiy va Ismoil Gasprinskiy aynan shu davrda ko‘rishganlar. Ammo ushu masalada Hoji Muinning so‘zlariga nazar solishimiz kerak. Hoji Muin “Uchqun” jurnalining 1923-yil 1-sonida e’lon qilingan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” maqolasida bunday yozgan: “Hijoz safaridan keyin Behbudiy afandi Bog‘chasaroyda chiqa turg‘on “Tarjimon” gazetasini oldirib o‘qiy boshlagdi. Ikkinchini tomonidan, turlik fanniy, ilmiy kitoblarning mutolaasi bilan ma’lumotini kengaytira berdi. Behbudiy afandi haj safaridan burun bir necha yil qozixona va hukumat idoralarig‘a kelmaqda bo‘lg‘on missioner Ostroumovning “Turkiston viloyatining gazeti”ni o‘qub yurgan bo‘lsa-da, bu gazeta uning fikrini ochmaydi. Balki “Tarjimon”ni o‘qiy boshlag‘ondan so‘ng fikri ochilib, “Turkiston” gazetasining musulmonlarni ag‘fol etish maqsadi bilan yoza turg‘on so‘zlarini tushuna boshlaydi va o‘zig‘a uchrag‘on yoru do‘stlarini mustabid hukumatning buzuq maqsadidan ogohlantiradi. Har vaqt va har yerda yo‘luqqan va musohib bo‘lg‘on oshnolarini sayohatg‘a targ‘ib va gazeta o‘qishg‘a tashviq etib yurdi. Shu bilan barobar alarg‘a o‘zi o‘qub chiqqan gazetalarni tarqatdi”²⁵. Ushbu so‘zlardan ayon bo‘ladiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy Ismoil Gasprinskiy bian 1893-yilda ko‘rismagan. Chunki Hijoz safaridan so‘ng “Tarjimon” gazetasini o‘qiy boshlagan xolos. Hijoz safari esa 1899-yilda bo‘lib o‘tadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, 1899-yilgacha Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tarjimon” gazetasini o‘qimagan. Shuningdek, Zaynobidin Abdirashidovning “XX asrning turkiy dunyoning ikki buyuk intellektuali Ismail Gasprinskiy va Mahmudxo‘ja Behbudiy” maqolasida shunday

²⁵ Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy – Toshkent. 2010.

deyiladi: “Mahmudxo‘ja Behbudiy turkistonlik jadidlar orasida Gasprinskiy bilan mustahkam aloqa o‘rnatgan va “Tarjimon”da faol ishtirok etganligi bilan ajralib turadi. Gazetaning sahifalarida uning ismi bilan bog‘lik 34 maqola va xabar uchraydi. Ularni yillar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, quyidagi holatni ko‘rish mumkin: 1904 – 1; 1905 – 1; 1906 – 4; 1908 – 3; 1909 – 2; 1910 – 2; 1911 – 1; 1913 – 15; 1914 – 6. Bulardan 26 tasi turli mazmundagi xabar, 4 maktub, 2 maqola, 1 telegramma, 1 Behbudiy maqolasiga taqriz va munosabat”. Ushbu so‘zlar ham 1904-yildagina Mahmudxo‘ja Behbudiyning Ismoil Gasprinskiy bilan aloqa o‘rnatganini ko‘rsatadi. Ushbu keltirilgan so‘zlardan yana bir narsa aniq bo‘ladiki, 1913-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy faoliyati yuqori cho‘qqiga chiqadi. shu davrda Samarqandda “Oyna” jurnali va “Samarqand” gazetasi ham nashr ettirilayotgan edi. Albatta, “ilmga muhabbatli” Bebuliy ushbu nashr ishlarida ham ishtirok etadi.

1893-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy va Ismoil Gasprinskiy ko‘rishmagan bo‘lsa qachon ko‘rishgan degan savol tug‘ilishi tabiiy. Ushbu savolga javobni Hoji Muinning yozib qoldirgan maqolalaridan topishimiz mumkin. Hoji Muinning “Tanlangan asarlari”da shunday deyiladi: “Bir vaqt (1908 yilda), - deb yozadi u, - “Tarjimon” gazetasining muharriri Ismoilbek afandi Gasprinskiy (25 yillik yubileyidan so‘ng) Samarqandg‘a kelganida, Behbudiy afandi yig‘lag‘on holda ul zot ila quchoqlshib ko‘rushub: “Bu kun sizning huzuringizga kelib suhbatingizdan istifoda qila turg‘on ziyorilarimiz yo‘q”, - dedi. Ismoilbek afandi anga javoban: “Behbudiy afandi! Yig‘lamang! (Majlisdagi kishilarga ishora qilib.) Mana bular ozmi? Yana sizlar tirishsangiz, oz bir fursatda millatga keraklik ko‘b odamlar yetirdira olursiz”, - dedi”²⁶. Ushbu keltirilgan ma’lumotdan ayon bo‘ladiki, Ismoil Gasprinskiy va Mahmudxo‘ja Behbudiy 1893-yilda ko‘rishmagan, sababi ushbu ma’lumotda keltirilgan Ismoil Gasprinskiy bilan Mahmudxo‘ja Behbudiyning ko‘rishihi birinchi ko‘rishgan insonlarning ko‘rishishidek edi. Shuningdek, 1908-yildagina ular ko‘rishishga muvofiq bo‘lganini, lekin ungacha ular o‘rtasida yozma shaklda aloqa bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

²⁶ Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – B. 22-23.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begali Qosimov. Mahmudxo 'ja behbudiy hayoti va faoliyati. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2015 yil 3-son.
2. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – B. 22-23.
3. M.Xayrullayev. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomlar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 2001.
4. Naim Karimov. Mahmudxo 'ja Behbudiy – Toshkent. 2010.
5. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'Ubaydullayev. Vatan tarixi 2 – T.: "Sharq", 2010.